



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TAFAKKURNI RIVOVLANTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*mustaqil tadqiqotchi*

*Email: nilufarziyomiddinova83@gmail.com*


*ORCID :0009-0007-9086-8602*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bolalar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari, ularning yoshiga xos psixologik va pedagogik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali ta'lif texnologiyalari va metodik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan o'yinli mashg'ulotlar, muammoli ta'lif, interfaol usullar va vizual materiallardan foydalanishning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ta'lif jarayonida tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalar taklif etilib, pedagoglarning ushbu yo'nalishda qo'llashi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot boshlang'ish sinf tarbiya darslarini o'qitishning tegishli interaktiv usullarini aniqlash uchun o'tkazildi. Shu maqsadda umumta'lif maktabining 60 nafar 1-2-sinf o'quvchilari ishtirokida pedagogik tajriba o'tkazilib, tarbiya fanini o'rganishga bo'lgan motivatsiya darajasi bo'yicha so'rovnomalar o'tkazildi. O'quvchilar o'rtaida o'tkazilgan so'rovnomalar va kuzatishlar natijalari darslarda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar, interfaol o'yinlardan foydalanish hisobiga fikllash, ijodkorlik va tarbiya fanini o'rganish motivatsiyasining sifat jihatdan ijobjiyo'sishini ko'rsatdi. Maqolada tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari qaratilgan interfaol o'yin turlari ko'rib chiqildi, o'qitishda zamonaviy interfaol o'yin turlaridan foydalanishning asosiy turlari va usullari tavsiflandi.

Zamonaviy texnologiyalar tasavvurini rivojlantiradi, kerakli mavsuni avtomatik tushunishga va o'quvchining hissiy va hissiy sohasini rivojlantirishga yordam beradi. O'tkazilgan interfaol o'yin turlari tarbiya darslarini oson o'zlashtirish, o'yin texnikasidan foydalanishning asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi va tafakkukni rivojlanturuvchi o'yinlar, interfaol o'yinlarni o'rganish jarayoniga joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. Tarbiya darslarini tashkil etishda tafakkurni rivojlantirishga qaratilga interfaol usullar mavzuni yaxshi o'zlashtirishga, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** tafakkurni rivojlantirish, boshlang'ich ta'lif, pedagogik imkoniyatlar, mantiqiy tafakkur, ijodiy tafakkur, interfaol metodlar.



## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье анализируются педагогические возможности формирования навыков развития мышления у младших школьников. Рассматриваются особенности развития мышления детей, психолого-педагогические аспекты, характерные для их возраста. Также рассматриваются эффективные образовательные технологии и методические подходы, направленные на развитие логического, критического и творческого мышления. В ходе исследования выявляется значимость игровых занятий с младшими школьниками, проблемного обучения, использования интерактивных методов и наглядного материала. В статье предлагаются эффективные стратегии, направленные на развитие мышления в образовательном процессе, даются практические рекомендации, которые педагоги могут применить в этом направлении.

Исследование было проведено с целью выявления соответствующих интерактивных методов преподавания уроков воспитания в начальной школе. С этой целью был проведен педагогический эксперимент с участием 60 учащихся 1-2 классов общеобразовательной школы, проведен опрос по уровню мотивации к изучению дисциплины воспитание. Результаты опросов и наблюдений среди учащихся показали качественное положительное повышение мотивации к изучению предмета мышления, творчества и воспитания за счет использования развивающих мышление игр, интерактивных игр на уроках. В статье рассмотрены виды интерактивных игр, нацеленные на педагогические возможности формирования навыков развития мышления, описаны основные виды и методы использования современных видов интерактивных игр в обучении.

Современные технологии развивают воображение, способствуют автоматическому пониманию нужной темы и развитию эмоционально-эмоциональной сферы читателя. Проводимые виды интерактивных игр акцентируют внимание на основных особенностях легкого усвоения воспитательных занятий, использования игровых приемов и подчеркивают важность внедрения в процесс обучения развивающих мышление игры, интерактивных игр. Интерактивные методы, направленные на развитие мышления при организации воспитательных занятий, способствуют лучшему усвоению предмета, не только повышают интерес учащихся к предметам, но и повышают качество и эффективность обучения.

**Ключевые слова:** Развитие мышления, начальное образование, педагогические возможности, логическое мышление, творческое мышление, интерактивные методы.

## PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF THINKING DEVELOPMENT SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Annotation.** This article analyzes the pedagogical possibilities of the formation of thinking development skills in primary school students. The features of the development of children's thinking, psychological and pedagogical aspects inherent in their age are



considered. It also reflects on effective educational technologies and methodological approaches aimed at the development of logical, critical and creative thinking. The research process reveals the importance of playful activities with elementary students, problematic education, interactive methods and the use of visual materials. The article proposes effective strategies aimed at developing thinking in the educational process and provides practical recommendations that educators can apply in this direction.

The study was conducted to determine the relevant interactive methods of teaching beginner class education classes. To this end, a pedagogical experiment was carried out with the participation of 60 students of grades 1-2 of the secondary school and a survey of the level of motivation for studying upbringing. The results of surveys and observations among students showed a qualitatively positive increase in motivation to study fiction, creativity and upbringing, due to the use of games, interactive games that develop thinking in classes. The article examined the types of interactive game, where the pedagogical possibilities of the formation of thinking development skills are focused, described the main types and methods of using modern interactive game types in teaching.

Modern technologies develop the imagination, help to automatically understand the desired season and develop the emotional and emotional sphere of the student. The types of interactive games conducted focus on easy mastering of educational lessons, the main features of the use of Game techniques, and the importance of introducing thinking into the process of developing games, learning interactive games is emphasized. Interactive methods aimed at developing thinking in the organization of educational classes help to master the topic well, not only increase students' interest in the sciences, but also improve the quality and effectiveness of Education.

**Keywords:** development of thinking, primary education, pedagogical opportunities, logical thinking, creative thinking, interactive methods.

## I. KIRISH

Hozirgi davr ta'lif tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Chunki tafakkur - insonning atrof-muhitni anglash, voqealarni tahlil qilish, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuvni shakllantirish jarayonining asosi hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lifning ilk bosqichida bu jarayon samarali yo'lda qo'yilsa, kelajakda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuvni o'zlashtirishi va o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyati yuqori darajada shakllanadi.

Bolalar tafakkurining rivojlanish darajasi ularning bilish faolligiga, o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishiga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lif jarayonida mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik texnologiyalarni joriy



etish bugungi kun ta'lism tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Zamonaviy ta'lism metodlarining takomillashib borishi pedagoglarga o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lism yondashuvlari va vizual vositalardan foydalanish bu borada samarali natijalar berishi mumkin.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari keng tahlil qilinadi. Jumladan, bolalarning tafakkur jarayonini jadallashtirishga xizmat qiluvchi usul va metodlar, ularning samaradorligi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari muhokama etiladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida o'qituvchilarning ushbu yo'nalishda duch keladigan muammolari va ularning yechimiga doir tavsiyalar ham beriladi. Mazkur izlanish boshlang'ich ta'lism sifatini oshirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, pedagoglar va ta'lism mutaxassislari uchun foydali bo'lishi kutilmoqda.

Ta'lism jarayoni nafaqt bilim berish, balki o'quvchilarning tafakkurni rivojlantirishga ham yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bolalarning intellektual va ijodiy salohiyati shakllanadigan asosiy davr hisoblanadi. Shu bois, ta'lism metodlarining samaradorligi, o'quvchilar tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni joriy etish va pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanish bugungi kun ta'lism tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun mantiqiy, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhim bo'lib, bu ularning keyingi bosqichlardagi o'quv jarayoniga moslashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi, zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ushbu jarayonda katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik imkoniyatlarning roli, samarali metodlar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.

XXI asr ta'lism tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda shakllanib, o'quvchilarning faqat bilim olish jarayonini emas, balki ularning tafakkurni



rivojlantirishni ham o‘z oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichi bolaning tafakkuri shakllanadigan, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojiana boshlaydigan muhim davr hisoblanadi. Bolaning keyingi ta’lim jarayoniga moslashuvi va muvaffaqiyat qozonishi, asosan, shu bosqichda unga berilgan bilimlar hamda mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi boshlang‘ich ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Xususan, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlar ularga nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda o‘z qarashlarini ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam bermoqda. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirish masalasi bugungi ta’lim tizimining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda samarali pedagogik imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar pedagogika, psixologiya va metodika nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar.

Tafakkurning rivojlanishi bolalar psixologiyasida Jean Piaget, Lev Vygotsky, Jerome Bruner kabi olimlarning ishlarida keng o‘rganilgan. Piaget (1969) bola tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’kidlab, boshlang‘ich yoshdag‘i bolalarning konkret operatsiyalar bosqichida ekanligini ko‘rsatgan. Vygotsky (1978) esa tafakkurning rivojlanishida ijtimoiy o‘zaro ta’sir va til muhim rol o‘ynashini qayd etgan. Bruner (1986) esa o‘quv jarayonida faol kashfiyot qilish usulining ahamiyatini ta’kidlagan.

Pedagogik nazariyalarda tafakkurni rivojlantirish uchun interfaol usullar, muammoli ta’lim, reflektiv yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari keng tadqiq etilgan. Dewey (1933) ta’lim jarayonida refleksiya va tajriba asosida o‘qitish muhimligini ta’kidlagan. Bloom (1956) esa tafakkurning rivojlanishini



taksonomiya modeli orqali ko'rsatib, o'quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishni tavsiya qilgan.

Zamonaviy ta'lif metodistlari o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda turli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Gagne (1985) o'quv jarayonida bosqichma-bosqich ta'lif modelini taklif qilgan bo'lsa, Fisher (2005) tafakkurni rivojlantirish uchun tanqidiy fikrlash metodlarini o'rganib chiqqan.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar pedagogika, psixologiya va metodika nuqtayi nazaridan keng o'rganilgan bo'lib, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, turli innovatsion metodlarni qo'llash hamda o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini ochib beradi.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari": Ushbu maqolada muallif Zilola Mirzaxolmatovna Xursanova boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqqan. Tadqiqotda muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish usullari ko'rsatilgan.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati": Maftuna Ganiyeva tomonidan yozilgan ushbu maqolada didaktik o'yinlarning o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Muallif o'yinlar orqali o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tgan.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining o'rni": Nargiza Shuhratovna Bozorova ushbu maqolasida xalqaro baholash dasturlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi rolini tahlil qilgan. Tadqiqotda xalqaro dasturlar orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini baholash va rivojlantirish usullari ko'rsatilgan.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish" Farangiz G'ayrat qizi G'affarova tomonidan yozilgan ushbu maqolada



o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Muallif ta‘lim jarayonida kreativlikni oshirishning ahamiyatini ta’kidlagan

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mantiqiy tafakkurni o‘rgatishning pedagogik asoslari”: Umida Sherali qizi Rahimova ushbu maqolasida matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik usullari va samaradorligini tahlil qilgan.

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari”: Ushbu maqlada modulli ta‘lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrash qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va afzalliklari yoritib berilgan.



“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishning nazariy jihatlari”: Saodat Toshtemirova Abdurashidovna ushbu maqolasida tarixiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va nazariy asoslarini tahlil qilgan.

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta‘limiy o‘zlashtirishning mavjud imkoniyatlari”: Shirin Kamolova tomonidan yozilgan ushbu maqlada interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ta‘limiy o‘zlashtirish jarayoni masalalari o‘rganilgan.

Ushbu adabiyotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirishning turli jihatlarini yoritib, pedagogik jarayonda qo’llanilishi mumkin bo‘lgan samarali usul va yondashuvlarni taklif etadi.

### III. NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotning tajriba-sinov bosqichi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi.



**Tadqiqot ishtirokchilar:** tajriba Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 5-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 1-2-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Unda jami **60 nafar** o'quvchi qatnashdi (30 tasi nazorat guruhi, 30 tasi tajriba guruhi).

Tadqiqot metodikasi: tafakkurni rivojlantirish bo'yicha quyidagi metodlar sinovdan o'tkazildi:

Didaktik o'yinlar - mantiqiy jumboqlar, muammoli vaziyatlar;

Muammoli ta'lim – "Nega?", "Qanday qilib?" savollari orqali o'quvchilarni fikrlashga undash;

Interfaol mashg'ulotlar - guruh bo'lib ishslash, fikr almashish;



Krosvord va rebuslar- sudoku, ketma-ketlik topish mashqlari. Nazorat guruhi uchun an'anaviy ta'lif usullari qo'llandi. Tajriba guruhida esa innovatsion yondashuvlar asosida mashg'ulotlar o'tkazildi.

Olingan natijalar va tahlil: tajriba-sinov davomiyligi - uch oy davom etdi. Dastlabki va yakuniy natijalarni solishtirish uchun o'quvchilarga maxsus testlar berildi. Quyidagi natijalar aniqlandi:

Ko'nikmalar	Boshlang'ich ko'rsatkich (%)	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	O'sish farqi (%)
Muammoli vaziyatni hal qilish	42%	55%	80%	+25%
Mustaqil fikrlash	38%	50%	77%	+27%
Mantiqiy tafakkur	45%	58%	82%	+24%
O'z fikrini ifodalash	50%	60%	85%	+25%

**O'qituvchilar dars jarayonida faqat an'anaviy usullarga tayanmasdan, didaktik o'yin va interfaol metodlarni keng qo'llashlari zarur;**

- maktablarda tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus mashg'ulotlar joriy etish;
- matematik va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llash;
- o'quvchilarning tafakkurini baholash uchun muammoli test va ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lif jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lif, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagilar aniqlandi:



An'anaviy ta'lif usullaridan farqli ravishda, faol o'rganish metodlari (muammoli ta'lif, interfaol o'yinlar) qo'llanilganda o'quvchilar fikrlashga tezroq o'rguna boshlaydi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun faqatgina matematik topshiriqlar bilan cheklanib bo'lmaydi. Adabiyot, tabiatshunoslik, musiqa va boshqa fanlar orqali ham tafakkurni kengaytirish mumkin.

Bolalar mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o'rgatilganda, ular nafaqat ta'lif jarayonida, balki kundalik hayotda ham muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Pedagoglarning yangi metodikalarni o'zlashtirish darajasi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ushbu natijalarga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish lozim.

#### Tavsiyalar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirishni yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Ta'lif jarayonida innovatsion metodlarni keng joriy etish

Muammoli ta'lif – o'quvchilarga aniq bilimni tayyor holda emas, balki savol-javob, muammoli vaziyatlar orqali o'zлari xulosa chiqarishiga imkon berish.

Didaktik o'yinlar – o'quvchilarni faol fikrlashga undovchi mantiqiy o'yinlar, aqliy hujum, assotsiativ fikrlash mashqlarini darslarga joriy qilish.

Fanlararo bog'liqlik – tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni matematika, tabiatshunoslik, ona tili va o'qish savodxonligi darslariga integratsiya qilish.

Interfaol metodlar – "Fikrlar daraxti", "Fishbone", "Debatlar", "Rolli o'yinlar" kabi texnikalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quv dasturlarini takomillashtirish

Dasturlarni o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan boyitish lozim. Hozirgi kunda ta'lif mazmuni ko'proq faktik bilim



berishga asoslangan bo'lib, tafakkurni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

Tafakkurni rivojlantirish uchun ijodiy va muammoli masalalar sonini ko'paytirish, nafaqat standart javob talab qiladigan, balki turli echimlarni topishga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritish muhim.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Hozirgi baholash tizimi ko'proq yodlashga asoslangan bo'lib, tafakkurni baholash usullari kam qo'llaniladi.

O'qituvchilar malakasini oshirish

O'qituvchilarni tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodikalar bo'yicha o'qitish zarur. Maxsus trening va seminarlar tashkil qilish.

Yangi metodlarni sinab ko'rish uchun innovatsion dars ishlanmalari va resurslarini yaratish.

Zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalana olish malakasini oshirish, masalan, elektron resurslar, raqamli ta'lif vositalari va interaktiv dars usullarini joriy qilish.

Maktablarda tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan qo'shimcha tadbirlar tashkil qilish

Mantiqiy fikrlash bo'yicha maxsus to'garaklar va tanlovlardan o'tkazish (shaxmat klublari, ilmiy musobaqalar, kreativ yozuv mashg'ulotlari).

*Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish*, chunki bolalarning fikrlash qobiliyatini faqat maktab emas, balki oilaviy muhit ham shakllantiradi. Ota-onalarga bolalar bilan qanday ishslash bo'yicha tavsiyalar berish.

Maktablarda muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan treninglar va rolli o'yinlar tashkil etish, masalan, "Haqiqiy hayot masalalarini hal qilish" nomli maxsus darslar joriy etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus resurslar yaratish

Tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinli mobil ilovalar va elektron darsliklar ishlab chiqish.



Interaktiv mashg'ulotlar uchun qo'llanmalar yaratish, jumladan, "Kichik muhandislar", "Fikrlar laboratoriyasi", "Mantiqiy jumboqlar to'plami" kabi maxsus dars resurslari.

Ko'rgazmali vositalarni rivojlantirish, masalan, fikrlashni rivojlantiruvchi posterlar, didaktik kartalar va vizual materiallar yaratish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lif tizimida muhim o'rinni tutadi. Chunki aynan shu yoshda bola fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni tushunish, muammolarni hal qilish kabi intellektual qobiliyatlarini shakllantira boshlaydi. Mavzu bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlar tafakkurni rivojlantirish jarayonining turli jihatlarini yoritadi. Quyida ushbu muammo atroflicha muhokama qilinadi.

Tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari: psixolog va pedagog olimlar boshlang'ich sinf yoshida bolalarning tafakkuri asosan konkret-obrazli shaklda ekanligini ta'kidlaydi. Shu sababli, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun ko'proq vizual tasvirlar, o'yinlar va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan ta'lif metodlarini qo'llash lozim. Lev Vygotskiy va Jean Piaget kabi olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bola tafakkuri tajribaga bog'liq holda rivojlanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda qiziqarli va muammoli vaziyatlar yaratish orqali bolalarni fikrlashga undash mumkin.

Pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar: hozirgi kunda tafakkurni rivojlantirish uchun turli pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda.

Muammoli ta'lif metodi – o'quvchilar mustaqil xulosa chiqarishlari uchun ularga savollar qo'yish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali tafakkurni faollashtirish mumkin.

Interfaol ta'lif – "Aqliy hujum", "Klaster", "Fishbone" kabi texnikalar orqali o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilishga va mantiqiy tahlilga undash samarali usullardan hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar – ayniqsa, boshlang'ich sinflarda turli didaktik o'yinlar va kreativ topshiriqlar tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

**Tafakkurni rivojlantirishda fanlararo yondashuv:** boshlang'ich sinf darslarida tafakkurni shakllantirish nafaqat ona tili yoki matematika darslari bilan



cheklanmaydi. Tarix, tabiatshunoslik, musiqa va tasviriy san'at darslari ham bolaning tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, matematika orqali mantiqiy tafakkur rivojlantirilsa, adabiyot va tarix orqali ijodiy tafakkur shakllantiriladi.

**Muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari:** tafakkurni rivojlantirishda pedagoglar duch keladigan ayrim muammolar:

O'qituvchilarining yangicha metodlardan foydalanish bo'yicha malaka yetishmovchiligi;

O'quv dasturlarining juda ko'p faktik bilim berishga asoslanib, tafakkurni rivojlantirishga kam e'tibor qaratishi;

Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi sababli individual yondashuvni amalga oshirish qiyinligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun:

O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'qitish;

O'quv dasturlariga ko'proq tahlil va muhokamaga asoslangan topshiriqlarni kiritish;

Sinfda kichik guruhlar bilan ishslash orqali individual yondashuvni qo'llash lozim.

#### IV. XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari o'quv jarayonida muntazam qo'llanilganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyati, muammolarni hal qilish ko'nikmasi va mantiqiy tafakkuri sezilarli darajada oshadi.

Kelajakda ta'lif tizimi quyidagi yo'naliishlarga e'tibor qaratishi lozim:

**Pedagogik metodlarni takomillashtirish – interfaol va innovatsion metodlarni keng joriy qilish.**

Darslik va o'quv dasturlarini tafakkurni rivojlantirishga moslashtirish. O'qituvchilarni yangi yondashuvlarga o'rgatish va ularning malakasini oshirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kreativ va interaktiv o'quv resurslarini yaratish.



Agar ta'lif tizimida ushbu tavsiyalar joriy etilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri kengayadi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatları ortadi va mustaqil fikrlovchi avlod shakllanadi.

Tadqiqotda tarbiya fanini o'qitishning interfaol metodlari ko'rib chiqildi .tafakkurni rivojlantiluvchi o'yinlar texnologiyalari, pedagogik xususiyatlari sanab o'tildi. Umumta'lif maktabining 5-sonli Davlat Ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 1-2-sinf o'quvchilari bilan tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol o'yinlardan foydalanish misolida ijodkorlik va motivatsiya darjasini pedagogik jihatdan o'rGANildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajribadan so'ng o'quvchilarning tarbiya fanini o'rganish darajasi, o'zini-o'zi qadirlash, qiziqish, ijodkorlik, muammolarni bartaraf etish kabi ko'nikmalar shakillantirildi. Shuningdek tadqiqotda har bir o'qituvchi o'quv jarayonida qulay sinf muhitini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib olish, o'quvchilarni rag'batlantirishga fanga qiziqishini oshirishga harakat qilish ta'kidlangan. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yoshiga mos o'yinlarni tanlash kerak ekanligi aniqlandi. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan sinov tarbiya fanini o'rganishda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar medodikasidan qoniqish darjasini aniqlaydi va o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatda tarbiya fanini o'qitishni boshqa fanlar bilan integratsiyalash ham muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol korindi. Ushbu maqola o'quv jarayonida qanday qiyinchiliklar mavjudligi, o'quvchilarni erkin fiklashga tayyorlash, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bo'yicha keying tadqiqotlar qimmatli ma'lumotlar taqdim etildi.

Maktablarda tarbiya fanini o'qitish dasturiga o'yinga asoslangan yondashuvni joriy etish zarur. O'qituvchilar muntazam ravishda o'z malakalarini oshirib boradilar, o'z qiziqishlari va orttirgan tajribalarini hamkasblari bilan bo'lishish imkonini beradigan tadbirlarda ishtiroy etadilar, o'quvchilar uchun qiziqarli o'yinlar tashkil etadilar. Interfaol o'yinlarida ishtikor etgan o'quvchilarnig mantiqiy tafakkuri, erkin fikrlash ko'nikmalari va malakalari rivojlantiriladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotdagi ma'lumotlar o'zgaruvchan bo'lib, u subyektiv ravishda noxolis bo'lishi mumkin. Tajriba o'tkazilgan o'quvchilar sononi 1-2-sinf o'quvchilari 60 nafarni tashkil etadi. Kelajakda o'rganishning muhim mexanizimi

ham o'rganish bo'lishi mumkin, bu natijalar interfaol usullar mavjud bo'lgan maktablarda boshqa fanlarni qamrab olganmi yoki yo'ligini ko'rsatadi. Shu sababli kelgusida tarbiya fanini boshqa maktablarda tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol o'yinlar medodikasi orqali o'rganish masalasini ko'rib chiqish kerak.

Tarbiya fanini o'qitishda tafakkurni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llashda yuqorida ko'rsatilgan usullardan foydalanish, tadqiqotchilarga o'quvchilarining o'rganishdagi qiziqishlarini oshirish bilan bo'liq muammolarga yechim topish imkoniyatini beradi. Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar quyidagilarni tadbiq qilishga qaratilishi kerak: o'quvchilarining konnitiv qobilyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tafakkurni rivojlantiruvchi qobilyatlar, interfaol o'yin texnologiyalaridan foydalangan holda darslarning samaradorligini oshirish. Kelajakda o'quv faoliyatini tashkil etishda tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol usullardan foydalangan holda ta'limning uslubiy masalalarini o'z ichiga oladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduqodirov A., Yo'doshev J. "**Boshlang'ich ta'lif metodikasi**". - Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Jo'rayev N., O'rionboyeva G. "**Tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari**". -Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Nishonova S. "**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni shakllantirish**". - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Rahimov S. "**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish usullari**" // Ta'lif va taraqqiyot jurnali. - 2020, №3.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "**Boshlang'ich ta'lif konsepsiysi**". - Toshkent, 2022.
6. Vygotsky L. S. "**Thought and Language**". - Cambridge: MIT Press, 1986.
7. Piaget J. "**The Psychology of Intelligence**". - London: Routledge, 2001.
8. Bruner J. "**The Process of Education**". - Harvard University Press, 1996.
9. Dewey J. "**Democracy and Education**". - New York: Macmillan, 1916.
10. Slavin R. "**Educational Psychology: Theory and Practice**". - Pearson, 2017.
11. Halpern D. "**Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking**". - Psychology Press, 2013
12. Jonassen D. "**Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments**". - Routledge, 2010.
13. Mayer R. "**Multimedia Learning**". - Cambridge University Press, 2020
14. Novak J. "**Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools in Schools and Corporations**". - Routledge, 2010.
15. Bereiter C., Scardamalia M. "**Surpassing Ourselves: An Inquiry into the Nature and Implications of Expertise**". - Open Court, 1993.



16. Siemens G. "Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age" International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.
17. Hasanov.A."Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishning innovatsion usullari" // Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari, 2019.
18. Karimova D. "O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlearning o'rni". – PhD dissertatsiya, Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2021.
19. Mahmudov B. "Boshlang'ich ta'limga interfaol metodlar orqali tafakkurni rivojlantirish" // Ta'limga fan, 2022, №2.
20. Mustafayeva M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirish" // O'zbekiston pedagogik jurnali, 2020.
21. Xudoyberdiyev Sh. "Kognitiv psixologiya va boshlang'ich ta'limga tafakkurni rivojlantirish" // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2018.